



VIZA TALABNOMASIGA RAD JAVOBI BERILISHI HAQIDA QAROR

Norasmiy tarjima

Hurmatli janob/xonim.....,

Germaniya Federativ Respublikasining Toshkentdagi elchixonasi

Sizning viza talabnomangizni ko'rib chiqdi.

Talabnomangizga rad javobi berildi.

Ushbu qaror quyidagi sabab/lar/ga asoslanadi:

1. Safar uchun zarur bo'lgan hujjatlar soxta, qalbaki yoki o'zgartirilgan tarzda taqdim etilgan.
2. Rejalashtirilgan safarning maqsadi va shart-sharoitlarini asoslovchi hujjatlar taqdim etilmagan.
3. Rejalashtirilgan safar muddati uchun, kelib chiqqan yoki yashash davlatingizga qaytish uchun, yoki Siz qabul qilinishingiz kafolatlangan uchinchi davlatga tranzit uchun yetarlicha mablag' mavjudligi ko'rsatilmagan.
4. Rejalashtirilgan safar muddati uchun kelib chiqqan yoki yashash davlatingizga qaytish uchun yoki Siz qabul qilinishingiz kafolatlangan uchinchi davlatga tranzit uchun yetarlicha mablag'ni qonuniy tarzda olish imkoniga ega emassiz.
5. Siz yagona Schengen vizasi bo'yicha yoki amal qilinishi hududiy cheklangan viza bo'yicha joriy 180 kunlik muddat doirasida 90 kun davomida a'zo-davlatlar hududida bo'ldingiz.
6. Schengen Axborot tizimiga (SIS) _____ (a'zo-davlat ko'rsatilsin) tomonidan Sizni kiritmaslik to'g'risida ma'lumot berilgan.
7. Bir yoki bir nechta a'zo-davlatlar fikriga ko'ra, Siz jamoat tartibi va ichki havfsizlik uchun xavf tug'dirasiz.

8. Bir yoki bir nechta a'zo-davlatlar fikriga ko'ra, Siz Yevropa Hamjamiyatining 2016/399 raqamli qarorining (Chegaralar haqida Schengen kodeksi) 2-moddasi, 21-bandiga muvofiq jamoatchilik sog'lig'ini saqlash uchun xavf tug'dirasiz.
9. Bir yoki bir nechta a'zo-davlatlar fikriga ko'ra, Siz ularning xalqaro munosabatlari uchun xavf tug'dirasiz.
10. Rejalashtirilgan safarning maqsadi va shart-sharoitlarini asoslash uchun taqdim etilgan ma'lumotlar ishonarli emas.
11. (aniqlashtiring) bo'yicha qilingan ko'rsatmaning ishonarliligiga asosli shubha bor.
12. Taqdim etilgan hujjatlarning ishonarliligiga, haqiqiylikiga yoki ularning mazmunan to'g'riligiga asosli shubha bor.
13. Vizaning amal qilish muddati tugashidan oldin a'zo-davlat hududini tark etishingizga asosli shubha bor.
14. Chegarada viza so'ralganda: vizaga arizani oldindan topshirish imkoniyati bo'lmagani yetarlicha
15. Rejalashtirilgan aeroport orqali tranzit maqsadi va shart-sharoitlarini asoslovchi hujjatlar taqdim etilmadi.
16. Safar davomida amal qiladigan tegishli tibbiy sug'urta mavjudligi isbotlanmagan.

Izoh (Izoh uchun nemis tilidagi matnga qarang):

.....

Viza berish rad etilgani haqidagi qaror ustidan shikoyat qilinishi mumkin.

Viza berish rad etilgani haqidagi qaror ustidan shikoyat qilish ma'muriy sudlar haqidagi nizom (VwGO) orqali tartibga solingan.

Shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mas'ul idora:

Verwaltungsgericht Berlin, Kirchstr. 7, 10557 Berlin, Deutschland; Telefax: +49 (0)30 9014-8790

Bu jarayon haqidagi ma'lumotni bu yerdan topasiz:

Internet: www.berlin.de/vg

Shikoyat taqdim etilishi lozim:

qaror e'lon qilingan kundan boshlab 1 oy ichida

-----.

Shuningdek ushbu qaror ustidan shikoyat arizasini u e'lon qilingan sanadan boshlab bir oy ichida qarorni chiqargan diplomatik vakolatxonasi(Germaniyaning Toshkentdagi elchixonasi)ga ham yozma ravishda topshirish mumkin (apellyatsiya). Apellyatsiya paytida yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida shuningdek sudga arz qilishingiz ham mumkin. Lekin bu orqali apellyatsiya jarayoni to'xtatiladi va qaror sudga ko'rib chiqiladi. Apellyatsiyangizni asoslashingizni va unga viza talabnomangizda mavjud bo'lmagan, qarorni o'zgartirishga qodir tasdiqnomalarni ilova qilishingizni so'raymiz. Agar diplomatik vakolatxona hujjatlarni qayta ko'rib chiqqandan keyin ham viza berishni rad etsa, unda navbatdagi qaror qabul qilinadi (apellyatsiya qarori) va ushbu qaror ustidan Berlin ma'muriy sudiga shikoyat qilinishi mumkin

Sana va elchixona muhri:

Mas'ul shaxs imzosi